

ISLOMIY BANKLARDA AKTIV OPERATSIYALAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14393674>

G'aybullayeva Charos Baxtiyor qizi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Islomiy banklar va ularning aktiv operatsiyalari hamda uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Investor, Islomiy bank, moliya organlari, islom moliya bozori, investitsiya, mahsulot, biznes, iqtisodiyot.

So'nggi 20 yil ichida Islom moliya sanoati Osiyoda sezilarli darajada rivojlandi. Musulmonlar sonining tez o'sishi va turmush darajasining yaxshilanishi an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlariga alternativa sifatida Islomiy moliya tizimining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqin Sharq va Osiyodan kelgan investorlar tobora ko'proq ushbu mahsulotga sarmoya kiritishga intilmoqda buning asosiy sabablaridan biri bu turdagi mahsulotlar ularning diniy e'tiqodlariga mos keladi.

Bir qator Osiyo mamlakatlaridagi hukumatlar va moliya organlari iqtisodiy o'sishni oshirish uchun investitsiyalarni ko'paytirish va barqaror moliyalashtirishga erishish maqsadida islom moliya bozorlarini rivojlantirishga ko'maklashishdagi rollari katta bo'ldi. Bunda neft va Tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning yuqori likvidliligi qo'l kelmoqda.

Islomiy moliyaviy mahsulotlarning axloqiy xarakteri va moliyaviy barqarorligi investorlarni jalb qilishda asosiy omillardan biridir.

Iqtisodiy nazariyalarning islom bankchiligi bilan mosligi va mos kelmasligi Islom iqtisodiyotining asosiy maqsadlaridan biri - bu iqtisodiyotda real qo'shilgan qiymatni yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirish. Boshqa tomondan, farovonlik iqtisodiyoti, biznesni boshqarishning yangi kontseptsiyalari, shuningdek, yangi xalqaro bank nazariyalari qiymat yaratish va aktsiyadorlar manfaatlarini maksimal darajada oshirishdan iborat. Balki, islomiy bank faoliyatidagi sudxo'rlik qonunbuzarligining sabablaridan biri, pul bozorining real iqtisodiy sektorga ta'siridan kelib chiqishi mumkin, bu uzoq muddatli barqarorlik o'sishidan va pul bozori va boshqa bozorlardagi nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Demak, an'anaviy

iqтisod va islom iqtisodiyoti nazariyalari o'rtasidagi moslikni kuzatish mumkin, garchi bu muvofiqlikni hamma nazariyalarda ham kuzatib bo'lmaydi.

Islom bankida aktivlarning manbai va kelib chiqishi an'anaviy bankchilik kabi, sof foyda va majburiyatlardan kelib chiqadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, islomiy bank faoliyatida daromad olishning asosiy ustuni aktsiyadorlik kapitalining ichki manbalaridan va majburiyat sifatida tashqi manbalardan olingan aktivlardir. Islom bankida ishlab chiqarish aktivlari, deb tasniflanadi, pul mablag'lari va aktsiyadorlarning o'z mablag'lari yoki omonatchilarning omonatlari ularning shartnomalari bo'yicha likvidlik darajalariga ko'ra tasniflanadi.

Islom banki aktiv operatsiyalari bevosita investitsiya loyihalari bilan bog'liq. Bunda bank mudaraba, musharaka va boshqa turdagi shartnomalar asosida operatsiyalarni amalga oshiriladi. Aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda bank foiz va sudxo'rlikka yo'l qo'ymasligi end asosiy tamoyillardan biridir. Bunda bankning aktiv operatsiyalari sherikchilik xususiyatiga ega bo'ladi. Bunda bank va mijoz o'rtasida risk va foyda o'zaro taqsimlanadi.

• Islom banki aktiv operatsiyalari quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:

- Murobaha (ustama haq qo'yish asosida)
- Musharaka (sharikchilikka asoslangan)
- Mudaroba (mudarib bilan asosan foyda taqsimlanadi)
- Ijara va lizing
- Komission haqli qarz berish (bank xizmati uchun haq olish asosida)
- Qarz-al-Hasan (foizsiz qarz)

Murobaha. Bunda mijoz Islom bankiga ma'lum turdagi tovarni moliyalashtirish uchun mirujaat qiladi. Bank bu turdagi tovar xususiyatlarini o'rganib chiqadi, uning narxi yetkazib beruvchilar haqida ma'lumotlar to'playdi. Shundan so'ng bank mijozga barcha ma'lumotlarni va mijoz to'lashi kerak bo'lgan ustama haq summasini taqdim etadi. Mijoz barcha talablarga rozi bo'lsa, shartnoma imzolanadi. Mijoz to'lov summasini kechiktirib qismlarga bo'lib yoki bir martalik to'liq amalga oshirishi mumkin. Murobaha shartnomalari turli ko'rinishdagi obyektlarga nisbatan qo'llaniladi, mashina, uy jihozlari, ko'chmas mulk obyektlari shular jumlasidandir. Ishlab chiqarishda esa asosan asbob jihozlar va xomashyolar sotib olishda foydalanilishi mumkin.

Mushoraka. Foyda va zararni pul kiritgan tomonlar o'rtasida taqsimlashga asoslangan sherikchilikdir. Sharika mulk va sharika aqd kabi ko'rnishlarda bo'lishi mumkin. Foyda summasi taqsimlanishidagi tomonlarning ulushi o'zaro oldindan kelishib olinadi. Zarar summasi esa ishtirokchilarning kiritgan capital ulushiga mos

ravishda taqsimlanadi. Mushorakada qar qaysi ishtirokchi loyiha boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Amaliyotda mushorakaning ikkita asosiy turi mavjud DOIMIY va KAMAYIB BORUVCHI musharoka. Doimiy musharokada bank loyihadagi mulkdorlik kapitalidan va yillik foydadan oldindan kelishilgan ulushga ega bo'ladi. Doimiy mushorakada sherikchilik shartnomasi muddatini tomonlar istalgancha davom ettirishlari mumkin. Bunda mablag'lar uzoq muddatga beriladi. Kamayib boruvchi musharokada bankning kapitaldagi va foydadagi ulushi belgilab olinadi. Shuningdek shartnomada qo'shimcha to'lov summasi ham nazarda tutiladi. Bunda foydadagi ulushdan yuqori summa bank tomonidan kitilgan kapitalga qo'shimcha haq hisoblanadi. Bunda bankning kapitalga kiritga ulushi asta sekin kamayib boradi. Ma'lum vaqtdan so'ng bankning kapitaldagi ulushi "0" (nol) ga teng bo'ladi va bank sherikchilikdan chiqadi.

Mushoraka. Musharokaning boshqa bir turi SUDAN islom banki tomonidan qo'llaniladi. Bu asosan qishloq xo'jaligini qo'llab quvvatlashda qo'llaniladi. Sudan islom banki va fermer musharoka shartnomasi ishtirokchilari bo'lishadi. Bank barcha zarur asbob uskunalar, traktor, sug'orish qurilmalari kabi mashina jihozlar, shuningdek o'g'it va dorilar bilan ta'minlaydi. Fermer esa yer, mehnat va boshqaruvni ta'minlaydi. Dastlab sof foydaning 30% izi fermerga boshqaruvni amalga oshirgani uchun beriladi. Sof foydaning qolgan qismi esa tomonlar o'rtasida kiritga capital ulushiga ko'ra taqsimlanadi. Musharoka moliyalashtirish uslubi, shuningdek, ichki savdo, import va akkreditivlarni moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Mudaroba. Mudaroba Islom banking ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan va maqталgan o'ziga xos operatsiyalaridan biri. Biroq bu usulning keng qo'llanilishi uchun huquqiy va konseptual jihatdan ba'zi to'siqlar mavjud bo'lmoqda. IORDANIYA islom banki bu usuldan foydalanuvchi banklarda biridir. Iordaniya islom banki mudarobaning ikki xil turidan foydalanadi. Individual va qo'shma mudaroba. Individual mudarobada bank alohida shaxs yoki kompaniyani moliyaviy resurs bilan ta'minlaydi va foydadan ulushga ega bo'ladi. Qo'shma mudarobada investorlar va bank o'rtasida doimiy ravishda bo'lishi mumkin. Investorlar o'z mablag'larini davomli qo'shma moliyalashtirishda bank tomonidan boshqariladigan maxsus fondga saqlaydilar.

Ijara va lizing. Ijarada tovar va obyektlarni ma'lum muddatga vaqtincha foydalanishga berib turishdir. Obyektni ijaraga olgan mijoz bu uchun ma'lum miqdorda haq to'laydi. Ijara shartnomalari islom banklari orasida keng tarqalgan bo'lib, Islom Taraqqiyot banki, Malaysiya Islom banki va Pokiston Islom banki

ijaraga berishni amalga oshiruvchi banklardandir. Aktivlarni ijaraga berishda mulkka egalik huquqi bankda saqlanib qoladi biroq mulkka jismoniy egalik va undan foydalanish huquqi mijozga tegishli bo'ladi. Ijara muddati tugagach bu huquqlar ham bankka qaytariladi. Hozirgi kunda lizing operatsiyalari keng qo'llaniladi. Bunda lizing muddati yakunida mulkning egalik huquqi mijoz tassrufiga o'tadi, bunda lizing muddati davomida to'langan summa ham mulkning asosiy narxining ma'lum qismi sifatida qaraladi. Aktivning bahosi shartnoma tuzish davomida oldindan belgilab olinadi.

Komission haqli qarz berish. Ba'zi Islom banklari qarz berganda, qarz berish jarayoni bilan bog'liq ba'zi xizmatlar uchun haq oladi. Shu bilan birga, ushbu to'lov haqiqiy xarajatlar doirasida bo'lishi kerak va xizmat bilan bog'liq xarajatlarga qo'shimcha ravishda har qanday to'lov taqiqlanadi, chunki u sudxo'rlik hisoblanadi. Hozirgi kunda lizing operatsiyalari keng qo'llaniladi. Bunda lizing muddati yakunida mulkning egalik huquqi mijoz tassrufiga o'tadi, bunda lizing muddati davomida to'langan summa ham mulkning asosiy narxining ma'lum qismi sifatida qaraladi. Aktivning bahosi shartnoma tuzish davomida oldindan belgilab olinadi.

Qarz-al-Hasan. Ko'pgina islomiy banklar o'z mijozlariga foizsiz kreditlar ham berishadi. Biroq amaliyotlar har xil. Ba'zi banklar investitsiya hisob varaqlariga ega mijozlarga foizsiz kredit olish imtiyozini berishadi. Ba'zi boshqa banklarda ehtiyojmand talabalarga va jamiyatning boshqa iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlariga foizsiz kreditlar berish sharti mavjud. Shunga qaramay, ba'zi boshqa banklar boshqa manbalardan moliyalashtirishga qodir bo'lmagan kichik ishlab chiqaruvchilar, fermerlar, tadbirkorlarga foizsiz kreditlar berishadi. Ushbu kreditlarning maqsadi ularga mustaqil faoliyatni yo'lga qo'yib olishga yoki daromadlari va turmush darajasini oshirishga yordam berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
2. Bidabad, B. Harsini, A. (2003), Religious-economic analysis of usury in consumption and investment loans and shortages of contemporary jurisprudence in finding the rules of religion legislator. Monetary and Banking Research Academy, Central Bank of Iran, 2003
3. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi", "O'quv qo'llanma" - T.: Moliya. 2003.

4. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50.

5. Abdullayeva Sh.Z. "Pul kredit va banklar" O'zbekiston respublikasi Bank - moliya akademiyasi "Moliya" nashriyoti, 2000-y